
$$n_v = 1; K_I = 1 \text{ ([3], 2.2-j, 35-b)}$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{750}{598} \right)^1 = 1,25$$

$K_{nv}$ - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{nv} = 0.9 \text{ ([3], 2.5-j, 37-b)}$$

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \text{ ([3], 2.6-j, 37-b)}$$

$$K_v = 1 \cdot 0.9 \cdot 1,25 = 1,13$$

$$V = \frac{340}{60^{0.20} \cdot 0,2^{0.15} \cdot 0,4^{0.45}} \cdot 1,13 = 326 \text{ m/daq}$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 326}{3,14 \cdot 30,2} = 3435 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n = 1850 \text{ daq}^{-1}$  ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 30,2 \cdot 1850}{1000} = 175 \text{ m/daq}$$

6. Kesish kuchi  $P_z$  ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$C_p=300$ ,  $x=1$ ,  $y=0.75$ ,  $n=-0.15$  ([3], 2.24-j, 50-b)

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\varphi p} \cdot K_{\gamma p} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp}$$

$K_{mp}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mp} = \left( \frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{598}{750} \right)^{0.75} = 0.84$$

$K_{\varphi p}=1$ ,  $K_{\gamma p}=1$ ,  $K_{\lambda p}=1$ ,  $K_{rp}=0.93$  ([3], 2.25-j, 52-b)

$$K_p = 1 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0.84 \cdot 0.93 = 0.78$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 0.2^1 \cdot 0.4^{0.75} \cdot 175^{-0.15} \cdot 0.78 = 108 N$$

7. Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xag}}{60 \cdot 1020}; kVt$$

$$N_{kes} = \frac{108 \cdot 175}{60 \cdot 1020} = 0,31 kVt$$

8. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$N_{shp}=N_d \cdot \eta=3 \cdot 0.75=2.25$  kvt;

$N_{kes} \leq N_{shp}$ ,  $0.31 \leq 2.25$ , yani ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqtini hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi  $L=l+y+\Delta$

bu yerda:  $y=1.2$  mm, keskichni botishi

$\Delta=2$  mm, keskichni chiqishi

$l=15$ ,  $i=1$  o'tishlar soni

$$L=15+1.2+2=18.2 \text{ mm}$$

$$T_a = \frac{2,8 \cdot 1}{1850 \cdot 0,4} = 0.02 daq$$

## 010. Gorizontal frezalash operatsiyasi

**1-o'tish.** D1, D2 yuzalar eni  $B=20$  mm, uzunligi  $l=30$  mm o'lchamda frezalansin. Qo'yim miqdori  $h=1.3$  mm Dastgoh 6П180Г gorizantal frezalash. Ishlov berilayotgan material Ct 45,

$\sigma_B=598$  MPa. Kesuvchi asbob Uch tomonlama disk freza  $D=100$  z=8. Kesuvchi qismi materiali P6M5;

1. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

$t=h=1.3$  mm

## 2.Surish miqdori

$S_z=0.08-0.05$  mm/ayl ([3], 2.80-j, 88-b) (Disk freza uchun ( 2.79-j, 87-b)

$S_z=0.05$  qabul qilamiz

## 3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v = \frac{46,7 \cdot 100^{0,45}}{80^{0,33} \cdot 1,3^{0,5} \cdot 0,05^{0,5} \cdot 20^{0,1} \cdot 8^{0,1}} \cdot 1 = 206;$$

T –frezani turg'unlik davri, T=80 daq ([3], 2.85-j, 93-b)

$K_v$  - To'g'rakash koeffitsienti

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_I \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$n_v=1$ ;  $K_I=1$  ([3], 2.2-j, 35-b)

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{750}{598} \right)^1 = 1,25$$

$K_{nv}$ - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$K_{nv}=0.8$  ([3], 2.5-j, 37-b)

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$K_{uv} = 1$  ([3], 2.6-j, 37-b)

$$K_v = 1,25 \cdot 0,8 \cdot 1 = 1$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$C_v = 46,7$ ,  $q=0,45$ ,  $x=0,5$ ,  $y=0,5$ ,  $u=0,1$ ,  $p=0$ ,  $m=0,33$  ([3], 2.84-j, 90-b)  
m/daq

## 4.Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 206}{3,14 \cdot 100} = 657$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib  $n=800$  ayl/daq qabul qilamiz.

## 5.Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 100 \cdot 800}{1000} = 251$$

## 6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0,05 \cdot 8 \cdot 800 = 320$$

Dastgoh passportidan  $S_M = 355$  mm/daq qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{S_M}{z \cdot n} = \frac{355}{8 \cdot 800} = 0,06$$

## 7.Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$P_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp} = \frac{10 \cdot 68,2 \cdot 1,3^{0,86} \cdot 0,05^{0,72} \cdot 20^1 \cdot 8}{100^{0,86} \cdot 800^0} \cdot 0,93 = 329;$$

$K_{mp}$ - to'g'rakash koeffitsenti:

$$K_{mp} = \left( \frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.3 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{598}{750} \right)^{0.3} = 0.93$$

$$C_p = 68.2 \quad , \quad x = 0.86 , y = 0.72 \quad , \quad n = 1 \quad , \quad q = 0.86 \quad , \quad w = 0 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z v}{1020 \cdot 60} = \frac{329 \cdot 251}{1020 \cdot 60} = 1,35 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 2.8 * 0.85 = 2.38 \text{ kVt.}$$

$$1.35 \leq 2.38$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta = 30 + 1 + 3 = 34$$

$$l = 248.4 \text{ mm},$$

$$y = 0,5 \left( D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0,5 \left( 100 - \sqrt{100^2 - 20^2} \right) = 1 \text{ MM}$$

$$\Delta = 1 \dots 5 \text{ MM. } \Delta = 3 \text{ mm qabul qilamiz.}$$

$$T_{as} = \frac{34}{800} = 0,04 \text{ daq}$$

## 015. Vertikal parmalash operatsiyasi

**1-o'tish.** E teshik  $\varnothing 12$  mm  $l=30$  mm o'lchamda parmalansin. Dastgoh: 2A135 vertikal parmalash Zagotovka materiali Po'lat 45,  $\sigma_B = 598$  MPa ga teng. Kesuvchi asbob va uning geometrik parametrlari: Spiral parma GOST 10902-77 D=12 mm, kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5.

Geometrik o'lchamlari

$$2\varphi = 118^\circ; 2\varphi_0 = 70^\circ; \psi = 30^\circ; \alpha = 11^\circ \quad ([9] 203 \text{ bet, 44 jad})$$

2. Kesish chuqurligini belgilaymiz.

$$t = D/2 = 12/2 = 6 \text{ mm.}$$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o = 0.20-0.25 \text{ mm/ayl.} \quad ([3], 2.38-j, 62-b)$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o = 0.2 \text{ mm/ayl}$  ni qabul qilamiz.

3. Parmani turg'unlik davrini aniqlaymiz.

$T = 25$  daqiqa qabul qilamiz. ([3], 2.43-j, 66-b)

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot S^y} \cdot K_v \quad \text{m/daq}$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarni yozib olamiz.

$$C_v = 7, q = 0.40, y = 0.70, m = 0.20 \quad ([3], 2.41-j, 64-b)$$

To'g'rakash koeffitsentini topamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{uv} \cdot K_{lv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mv} = K_F \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$$n_v = -0.9; \quad K_F = 1 \quad ([3], 2.2-j, 35-b)$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{750}{598} \right)^{-0.9} = 0.82$$

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

$K_{lv}$ - Teshik uzunligini xisobga oluvchi koeffitsient

$$K_{lv} = 1 \quad ([3], 2.44-j, 67-b)$$

$$K_v = 0.82 \cdot 1 \cdot 1 = 0.82$$

$$V = \frac{7 \cdot 12^{0.4}}{25^{0.2} \cdot 0.2^{0.7}} \cdot 0.82 = 25 \text{ m/daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 25}{3.14 \cdot 12} = 677 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=750$  ayl/daq qabul qilamiz.

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xag} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 12 \cdot 750}{1000} = 28 \text{ m/daq}$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

Burovchi moment uchun:

$$C_m = 0.0345; \quad q = 2.0; \quad y = 0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p = K_{mp}$$

$$K_{mp} = \left( \frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n = 0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{598}{750} \right)^{0.75} = 0.84$$

U xolda:

$$M_{kp} = 10 \cdot 0.0345 \cdot 12^{2.0} \cdot 0.2^{0.8} \cdot 0.84 = 11.5 \text{ N}\cdot\text{m}$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblaymiz:

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_p = 68; \quad q = 1.0; \quad y = 0.7; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

U xolda :

$$P_0 = 10 \cdot 68 \cdot 12^{1.0} \cdot 0.2^{0.7} \cdot 0.84 = 2222 \text{ N}$$

9. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{11,5 \cdot 750}{9750} = 0,89 \text{ kvt};$$

10. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{n \cdot s} = \frac{32}{750 \cdot 0,2} = 0,21$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 30 + 1 + 1 = 32 \text{ mm};$$

bu yerda:  $y=1 \text{ mm}$ , parmani botishi

$\Delta=1 \text{ mm}$ , parmani chiqishi,  $l=30 \text{ mm}$ , teshik uzunligi.

**2-o'tish.** E teshikda M14x3 rezba  $l=30 \text{ mm}$  o'lchamda ochilsin. Dastgoh: 2A135 vertikal parmalash. Kesuvchi asbob: Metchik GOST 3266-81 bo'yicha, kesuvchi qism materiali tezkesar po'lat P6M5. Geometrik o'lchamlari :

$$\gamma=8^\circ, \lambda=0^\circ, \varphi=20^\circ$$

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz.

$$t=1 \text{ mm}.$$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o=0,1 \text{ mm/ayl. (dastgoh pasportidan)}$$

3. Metchikni turg'unlik davrini aniqlaymiz.

$$T=90 \text{ daqiqa qabul qilamiz. ([3], 2.109-j, 108-b)}$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot S^y} \cdot K_v = \frac{64,8 \cdot 11^{1,2}}{90^{0,9} \cdot 0,1^{0,5}} \cdot 1 = 63 \text{ m/daq}$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarni yozib olamiz.

$$C_v=64,8, q=1,2, y=0,5, m=0,9 \quad ([3], 2.109-j, 108-b)$$

To'g'rilash koeffitsentini topamiz.

$$K_v=K_{mv} \cdot K_{uv} \cdot K_{tv}=1$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$K_{uv}$ - kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsent;

$K_{tv}$ - rezba aniqligini xisobga oluvchi koiffitsient

$$K_{mv}=1; K_{uv}=1; K_{tv}=1 \quad ([3], 2.110-j, 111-b)$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 63}{3,14 \cdot 11} = 1837$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=1600 \text{ ayl/daq qabul qilamiz.}$

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xak} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 11 \cdot 1600}{1000} = 55 \text{ m/daq}$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot P^y \cdot K_p = 10 \cdot 0,0041 \cdot 11^{1,7} \cdot 3^{1,5} \cdot 0,85 = 11;$$

Burovchi moment uchun:

$$C_m=0,0041; q=1,7; y=1,5; \quad ([3], 2.111-j, 112-b)$$

$$K_p=0,85 \quad ([3], 2.110-j, 111-b)$$

8.Kesishdagagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp}n}{975} = \frac{11 \cdot 1600}{975} = 17,5 \text{ kvt};$$

9.Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{l+l_1}{n \cdot P} + \frac{l+l_1}{P \cdot n_1} = \frac{30+18}{1600 \cdot 3} + \frac{30+18}{3 \cdot 2000} = 0,02$$

Bu yerda :

$$l_1 = 4 \cdot P + 2 \cdot P = 4 \cdot 3 + 2 \cdot 3 = 18$$

$$n_1 = 1,25 \cdot n = 1,25 \cdot 1600 = 2000$$

## 020. Tashqi doiraviy jilvirlash operatsiyasi.

**1-o'tish.** C yuza D=30k6 mm l=15 mm gacha jilvirlansin. Mexanik ishlov berishdan so'ng yuzaning g'adir-budurligi Ra=1.25 mkm ga teng. Kesuvchi asbob: Jilvirtosh ПП 15А 25 H C1 7 K1 A, D=600 mm, B=63 mm V= 35 m/c. Dastgoh: 3724 yassi jilvirlash.

Kesish maromini belgilaymiz.

1. Jilvir toshning aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n_k = \frac{1000 \cdot V_k \cdot 60}{\pi \cdot D_k}, \text{ ayl/min}; n_k = \frac{1000 \cdot 35 \cdot 60}{3.14 \cdot 600} = 1114 \text{ ayl/min}$$

2. Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n_k = 1112$  ayl/daq qabul qilamiz.

3. Spravochniydan zagatovka aylanish tezligini aniqlaymiz.  $V_z = 30 \text{ m/min}$

4. Zagatovka aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n_z = \frac{1000 \cdot V_z}{\pi \cdot d}, \text{ ayl/min}; n_z = \frac{1000 \cdot 30}{3.14 \cdot 30} = 318 \text{ ayl/min};$$

5. Spravochniydan jilvirlash chuqurligini aniqlaymiz.

$$t = 0.005 \text{ mm}$$

6. Spravochniydan ko'ndalang surish miqdorini aniqlaymiz.

$$S_k = 0.3 * b = 0.3 * 63 = 18.9 \text{ mm/ayl}$$

7. Ishchi stolini ko'ndalang yurish tezligini aniqlaymiz.

$$V_s = \frac{S_k * n_z}{100}, \text{ m/min}; V_s = \frac{18.9 * 318}{100} = 60 \text{ m/min}$$

8. Kesishdagagi quvvati:

$$N = C_n * V_z^R * t^x * S_k^y * d^z, \text{kBT}$$

$$C_n = 2.65, R = 0.5, x = 0.5, y = 0.55, z = 0$$

$$N = 2.65 * 30_z^{0.5} * 0.005^{0.5} * 18.9_k^{0.55} * 30^0 = 5.2 \text{ kBT}$$

9. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:  $N_{kes} \leq N_{shp}$ ,  $5.2 \leq 7$ , yani ishlov berish mumkin.

10. Asosiy vaqt:

$$t_0 = \frac{l * h}{n_z * t * S_k}, \text{ min} \quad t_0 = \frac{15 * 0.148}{318 * 18.9 * 0.005} = 0.07 \text{ min}$$

## 2.5. Vaqit me'yorini hisobi.

Texnik vaqtni me'yorlash seriyali ishlab chiqarish sharoitlarida hisobiy analitik usul yordamida topiladi. Bizning holatga ko'ra ishlab chiqarish – o'rta seriyali. Partiyadagi detallar soni - 18 dona.

Donaviy kalkulyasion vaqt  $T_{d.k}$  seriyali ishlab chiqarish sharoitida quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$T_{d.k} = \frac{T_{tay}}{n} + T_d \quad ([2], 101\text{-bet.})$$

bu yerda:

$T_{tay}$ -tayyorgarlik vaqt,  $n$ -partiyadagi detallar soni,  $T_d$ -donabay vaqt.

$$T_d = T_{as} + T_{yor} + T_{xiz} + T_{dam} \quad ([2], 101\text{-bet.})$$

bu yerda:

$T_{as}$ - asosiy vaqt,  $T_{yor}$ - yordamchi vaqt,  $T_{xiz}$ - ish joyiga xizmat ko'rsatish vaqt,  $T_{dam}$ - dam olish vaqt.

Seriiali ishlab chiqarish sharoitida yordamchi vaqt quyidagicha aniqlanadi:

$$T_{yor} = T_{o'r} + T_{max} + T_{bosh} + T_{o'l} \quad ([2], 101\text{-bet.})$$

bu yerda:

$T_{o'r}$ - detalni moslamaga o'rnatish vaqt,  $T_{max}$ - detalni moslamada maxkamlash vaqt,  $T_{bosh}$ - dastgohni boshqarish uchun sarflanadigan vaqt,  $T_{o'l}$ - o'lchash uchun ketgan vaqt.

Ish joyiga xizmat ko'rsatish va dam olish vaqt quyidagicha aniqlanadi:

$$T_{xiz,dam} = \frac{T_{op} \cdot \Pi_{xiz,dam}}{100} \quad ([2], 102\text{-bet.})$$

bu yerda;

$T_{op}$ - operatsion vaqt,  $\Pi_{xiz,dam}$ - ish joyiga xizmat ko'rsatish va dam olish vaqtining operatsion vaqtdagi ulushi, %.

$$T_{op} = T_{as} + T_{yor} \quad ([2], 102\text{-bet.})$$

## 005-Tokarlik revolver operatsiyasi uchun donaviy kalkulatsion vaqtni xisoblaymiz.

Asosiy vaqt:

$$\begin{aligned} \sum T_{as} = & 0.03 + 0.03 + 0.08 + 0.04 + 0.01 + 0.03 + 0.03 + 0.03 + 0.004 \\ & + 0.02 = 0.3 \text{ daq.} \end{aligned}$$

Yordamchi vaqt:

$$T_{yo} = 1.15 \text{ daq.}$$

Operatsion vaqt:

$$T_{op} = 0.3 + 1.15 = 1.45 \text{ daq.}$$

Ish joyiga xizmat ko'rsatish va dam olish vaqt:

$$\Pi_{xiz,dam} = 6.5 \quad ([2], 214\text{-bet}, 6.1\text{-j.})$$

$$T_{xiz,dam} = \frac{1.45 \cdot 6.5}{100} = 0.09$$

Donabay vaqt:

$$T_d = 1.45 + 0.09 = 1.54 \text{ daq}$$

$T_{tay}$ -tayyorgarlik vaqtı 9 daq ([2], 215-bet, 6.3-j.)  
Donaviy kalkulyasion vaqt:

$$T_{d,k} = \frac{9}{18} + 1.54 = 2.04 \text{ daq}$$

### 010-Frezalash operatsiyasi uchun donaviy kalkulatsion vaqtni xisoblaymiz.

Asosiy vaqt:

$$\sum T_{as} = 0.04 \text{ daq.}$$

Yordamchi vaqt:

$$T_{yo} = 0.48 \text{ daq.}$$

Operatsion vaqt:

$$T_{op} = 0.04 + 0.48 = 0.52 \text{ daq.}$$

Ish joyiga xizmat ko'rsatish va dam olish vaqtı:

$$\Pi_{xiz,dam} = 8 \text{ ([2], 214-bet, 6.1-j.)}$$

$$T_{xiz,dam} = \frac{0.52 \cdot 8}{100} = 0.04$$

Donabay vaqt:

$$T_d = 0.52 + 0.04 = 0.56 \text{ daq}$$

$T_{tay}$ -tayyorgarlik vaqtı 16 daq ([2], 217-bet, 6.5-j.)  
Donaviy kalkulyasion vaqt:

$$T_{d,k} = \frac{16}{18} + 0.56 = 1.45 \text{ daq}$$

### 015-Vertikal parmalash operatsiyasi uchun donaviy kalkulatsion vaqtni xisoblaymiz.

Asosiy vaqt:

$$\sum T_{as} = 0.21 + 0.02 = 0.23 \text{ daq.}$$

Yordamchi vaqt:

$$T_{yo} = 0.67 \text{ daq.}$$

Operatsion vaqt:

$$T_{op} = 0.23 + 0.67 = 0.9 \text{ daq.}$$

Ish joyiga xizmat ko'rsatish va dam olish vaqtı:

$$\Pi_{xiz,dam} = 6 \text{ ([2], 214-bet, 6.1-j.)}$$

$$T_{xiz,dam} = \frac{0.9 \cdot 6}{100} = 0.05$$

Donabay vaqt:

$$T_d = 0.9 + 0.05 = 0.95 \text{ daq}$$

$T_{tay}$ -tayyorgarlik vaqtı 9 daq ([2], 216-bet, 6.4-j.)  
Donaviy kalkulyasion vaqt:

$$T_{d,k} = \frac{9}{18} + 0.95 = 1.45 \text{ daq}$$

### 020-Jilvirlash operatsiyasi uchun donaviy kalkulatsion vaqtni xisoblaymiz.

Asosiy vaqt:

$$\sum T_{as} = 0.07 \text{ daq.}$$

Yordamchi vaqt:

$$T_{yo} = 0.33 \text{ daq.}$$

Operatsion vaqt:

$$T_{op} = 0.07 + 0.33 = 0.4 \text{ daq.}$$

Ish joyiga xizmat ko'rsatish va dam olish vaqt:

$$\Pi_{xiz,dam}=5 \text{ ([2], 215-bet, 6.2-j.)}$$

$$T_{xiz,dam} = \frac{0.4 \cdot 5}{100} = 0.02$$

Donabay vaqt:

$$T_d = 0.4 + 0.02 = 0.42 \text{ daq}$$

$T_{tay}$ -tayyorgarlik vaqt 10 daq ([2], 220-bet, 6.8-j.)

Donaviy kalkulyasion vaqt:

$$T_{d.k} = \frac{10}{18} + 0.42 = 0.98 \text{ daq}$$

### **3.KONSTRUKTORLIK QISM**

#### **3.1 Dastgoh moslamasini bayoni va hisobi**

Zagatovkalar ishlov berish uchun moslamalarga o'rnatish elementlaridan foydalanib bazalanadi. O'rnatish elementlari (tayanchlar)ni asosiy va yordamchi turlari mavjud. Zagotovkani o'rnatilganda hamma yoki bir necha erkinlik darajasini yo'qotuvchi elementlar asosini tayanchlar deb yuritiladi va ular zagotovkani fazodagi xolatini aniqlaydi. Ular asosan qo'zg'almas bo'ladi.

Detalimizni frezalash uchun torets va tashqi silindrik yuzasidan o'rnatish maqsadga muvofiq. Detalni bazalshda prizmalardan foydalanamiz. Prizmalar moslama tanasiga shtift yordamida o'rnatilib, vintlar yordamida maxkamlanadi.

#### **Maxkamlash kuchini xisoblash.**

Maxkamlash kuchi ishlov berish jarayonida xosil bo'ladigan kuchlarga qarshi turuvchi va zagotovkani muvozanat xolatini ta'minlovchi kuchdir. Maxkamlash kuchi ishlov berish jarayonida zagotovkaga ta'sir qilayotgan kuchlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Maxkamlash kuchi  $W$  quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q = \frac{P_z \cdot K \cdot a \cdot \sin\left(\frac{\beta}{2}\right)}{f \cdot D}$$

Bu yerda:  $f$  – ishqalanish koeffitsienti, ishlov berilgan yuzadan o'rnatilganda  $f=0.16$  ([4], 10-j, 85-b)

*D-detalni qisish diametri, 30 mm*

*K-extiyor koeffitsienti,*

*P<sub>z</sub> – kesish kuchi. 658 N*

*β-prizma burchagi, 90°*

*a-frezalash nuqtasidan qisish nuqtasigacha masofa, 5 mm*

Kesish kuchlarini o'zgaruvchanligini hisobga olgan xolda, maxkamlash kuchlarini hisoblash chog'ida kesish kuchlarini  $K$  extiyot koeffitsient kiritish bilan ko'paytirib olinadi. Bu bilan zagotovkani maxkamlash ishonchliligi oshiriladi. Bu koeffitsient kesish kuchlarini o'zgaruvchanligiga olib keluvchi omillarini hisobga oladi.

Buning uchun muayyan texnologik amal uchun  $K$  extiyot koeffitsientini differentialsallangan xolda aniqlanadi.  $K$  ni miqdorini quyidagi koeffitsientlar ko'paytmasi ko'rinishida yozish mumkin.

$$K = K_0 \cdot K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 \cdot K_4 \cdot K_5 \cdot K_6$$

bunda,  $K_0=1,5$  – kafolatlagan extiyot koeffitsienti; [(4), 85-bet]

$K_1=1,2$  texnologik bazalarni xolatini hisobga oladi. [(4), 85-bet]

$K_2=1,3$ -kesish asbobini o'tmaslanishini hisobga oladi. [(4), 9-jad. 85-bet]

$K_3=1$  -kesish asbobiga ta'sir etuvchi zarbiy kuchlarni hisobga oladi.

[4, 85-bet]

$K_4=1,3$ -kuch yuritmasidagi kuchlarni barqarorligini hisobga oladi.

[(4), 85-bet]

$K_5=1.2$ -qo'lida ma'kamlash mexanizmini xarakterlaydi. [(4), 85-bet]

$K_6=1,0$  kontakt zonasi chegaralanmagan bazaviy yuzaga o'rnatilganda. [(4), 85-bet]

$$K = 1.5 \cdot 1.2 \cdot 1.3 \cdot 1 \cdot 1.3 \cdot 1.2 \cdot 1 = 3,65$$

Zaruriy maxkamlash kuchini aniqlaymiz

$$Q = \frac{658 \cdot 3.65 \cdot 5 \cdot \sin\left(\frac{90}{2}\right)}{0.16 \cdot 30} = 1751 N = 175 \text{ kgs}$$

Demak zaruriy maxkamlash kuchi 175 kgs ga teng ekan

### **Kuch yurituvchi mexanizmni tanlash**

Kuch yurituvchi mexanizmlar ishlab chiqarish turi va sharoitidan, ishlov berilayotgan detalning konstruksiyasidan va zaruriy qisish kuchlaridan kelib chiqib tanlanadi.

Loyixalanayotgan moslamada porshenli pnevmoslinrdan foydalanamiz. Bizga kerak bo'lgan  $Q=175$  kgs kuchni xosil qilish uchun porshenning zaruriy diametrini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$D = \sqrt{\frac{4 \cdot Q}{\pi \rho n}} = \sqrt{\frac{4 \cdot 175}{3,14 \cdot 0,4 \cdot 0,85}} = 25,6 \text{ mm}$$

$D=50$  mm qabul qilamiz. ([4]; 4-j; 182-bet);

$\rho$ = havo bosimi ,  $\rho=0,4 \text{ kg/mm}^2$

$n=yo'qotish koyfisenti$ ,  $n=0,85$

### **Moslamani aniqlikka hisoblash.**

Moslamani aniqlikka hisoblash zagotovkani moslamada o'rnatishning eng afzal sxemasini tanlash maqsadida bajariladi. Moslama talablarga javob berishi uchun quyidagi shart bajarilishi kerak.

$$\varepsilon \leq [\varepsilon]$$

Zagotovkani o'rnatish xatoligi tasodifiy tashkil qiluvchilarining yig'ma taqsimlanish maydoni sifatida quyidagicha topiladi.

$$\varepsilon = \sqrt{\varepsilon_A^2 + \varepsilon_C^2 + \varepsilon_{ID}^2}, \text{ mm}$$

Bazalashning o'rnatish xatoligi.

$$\varepsilon = \frac{\delta}{2} + x,$$

Bu yerda;  $x$  – radial tebranish, buni biz 0 deb qabul qilamiz, shunda shart quyudagiga teng bo'ladi

$$\varepsilon = \frac{0,06}{2} + 0 = 0,03 \text{мм} = 30 \text{мкм}$$

Zagatovkani o'rnatish xatoligini aniqlaymiz.

$$\varepsilon_{IP} = \sqrt{\varepsilon_{YC}^2 + \varepsilon_H^2 + \varepsilon_C^2},$$

Bu yerda;  $\varepsilon_{YC}$  – moslamaning taylorlanish va yig'ilishidagi xatoligi;  
Moslama bitta bo'lgani uchun  $\varepsilon_{YC} = 0$  – dastgox sozlamalaridan tog'rilaqan xolatda.

$\varepsilon_H$  – Moslamaning o'rnatish elementlari yeyilish, xatoliklari;

$$\varepsilon_H = \beta \sqrt{N} \text{ мкм}$$

bu yerda;  $\beta$  – o'zgarmas,

$$\beta = 0,3 - 0,8.$$

Qabul qilamiz.  $\beta = 0,8$ .

N – zagatovkaning yillik miqdori.

$$\varepsilon_H = 0,8 \sqrt{200} = 11 \text{ мкм}$$

$\varepsilon_C$  – Moslamani dastgohga o'rnatish xatoligi,  $\varepsilon_c = 0,01 - 0,02$  мм.

Qabul qilamiz  $\varepsilon_C = 0,02$  мм = 20 мкм,

$$\varepsilon_{IP} = \sqrt{0^2 + 11^2 + 20^2} = 23 \text{ мкм}$$

$$\varepsilon = \sqrt{30^2 + 0^2 + 23^2} = 38 \text{ мкм}.$$

Demak texnologik qoyimlar to'g'ri o'lchamda bajarilishi 75 мкм va boshqa muxim umumiylar xatolik  $\varepsilon_{доп} > \varepsilon_{общ}$ , shunday qilib  $75 > 38$  – loyixalanayotgan moslamada talab etilgan aniqlikdagi teshik olish mumkin.

### 3.3. Кесувчи асбобни баёни ва ҳисоби

Қаттиқ қотишма пластинкаси билан таъминланган токарлик ўтувчи кескични ҳисоблаймиз.

Мустахкамлиги  $\sigma = 750 \text{ МПа} (75 \text{ кгс/мм}^2)$ . Заготовка диаметри D=30мм, ишлов бериш учун қўйим микдори  $h=1.5$  мм, суриш микдори  $S=0.2$  мм/айл, кескични таянч қисмидан чиқиб турган қисми  $l=60$ мм.

1. Кескични дастагини материали учун углеродли пўлатни қабул қиласиз.  
Пўлат 50  $\sigma = 650 \text{ МПа} (65 \text{ кгс/мм}^2)$  руҳсат этилган эгилишдаги кучланиш  $\sigma = 200 \text{ МПа} (20 \text{ кгс/мм}^2)$

2. Кесиш кучини ((1) дан, 12 мисолда келтирилганда аниқлаб оламиз).

$$P_z = 9.81 C p_z t^{x_{p_z} s_y} K p_\lambda = 9.81 \cdot 300 \cdot 3.5 \cdot 0.1^{0.75} \cdot 1 = 9.81 \cdot 300 \cdot 3.5 \cdot 0.405 = 4170 \text{ Н} (415 \text{ кгс})$$

Бу ерда  $K p_z = 1$  йиғма тўғирлаш коэффициенти.

3. Кескични тўғри бурчакли кесиш учун эни n=1.6в шарт учун аниқлаймиз.

$$b = \sqrt[3]{\frac{6P_z l}{2.56 \sigma_k}} = \sqrt[3]{6 \cdot 415 \cdot 60} = 14.3 \text{ мм}.$$

4. Стандарт СТСЭВ153-75, (1) 20бет 28 жадвалдан кескич дастагини кесимини эни катта қийматини қабул қиласиз.  $b=16$ мм, юқорида келтирилганга асосланиб кескич дастагини баландлигини топамиз.

$$h=1.6 * b=1.6 * 1.6=2.56 \text{ мм.}$$

$h=25$  мм қабул қиласиз.

5. Кескич дастагини мустахкамлигини ва қаттиқлигини текширамиз.

а) Кескич мустахкамлигига рухсат этилган юкланиш.

$$P_{Z_{ppyxca}} = \frac{BH^2 \cdot \sigma_e}{6 \cdot l} = \frac{16 \cdot 25^2 \cdot 20}{6 \cdot 60} = 555 \text{ кгс.}$$

б) кескични қаттиқлигига рухсат этилган юкланиш.

$$P_{Z_{\text{мати}}} = \frac{3fEj}{l^3} = \frac{3 \cdot 01 \cdot 20000 \cdot 20800}{60^3} = 577 \text{ кгс.}$$

Бу ерда  $f=0.1 \cdot 10^{-3}$  (0.1 мм) қора йүниб ишлов беришдаги кескични структурасига қўйилгашан рухсат эгилиш;  $E=2 \cdot 10^5$  МПа=20000 кгс/мм<sup>2</sup>.

Кескич дастаги материалини модул упругости;  $l=60$  мм –кескич вилети; о-кескич дастагини тўғри бурчакли кесми учун инерция моменти;

$$J = \frac{bh^3}{12} = \frac{16 \cdot 25^3}{12} = 20800 \text{ мм}^3$$

Кескич керакли мустахкамликка ва қаттиқликка эга, чунки  $P_z > P < P_{z_k}$

Кескични конструктив ўлчамлари ст. СЭВ 190-75 бўйича қабул қилинади.

а) Кескични умумий узунлиги  $L=140$  мм.

б) кискични чўққисидан ён томони ни юзасини бош кесувчи қиррасини йўналиши бўйича оралиқ масофаси  $h=6$  мм.

в) Кескични бош кесувчи қиррасини радиуси  $R=0.4$  мм.

г) Қаттиқ қотишма пластинкаси  $l=16$  мм; пластинка шакли № 0239А, ГОСТ 2209-82 бўйича. Кескични кесувчи қисмини геометрик параметрларини 18-карта ((2) маълумотномадан 188,189) бетидан танлаб оламиз.

7. ГОСТ 5688-61 бўйича қабул қиласиз:

а) Кескични кесувчи қисмини олдинги ва орқангидан юзаларини ва дастагини таянч юзаларини сифатини ғадир-будирликларини қабул қилиб оламиз.

б) Кескични габарит ўлчамларини чегаравий оғишларини қабул қилиб оламиз.

в) Қаттиқ қотишма пластинкасини ва дастагини материалини маркасини танлаб оламиз.

г) Тамға босиладиган жойни юзасини белгиланади.

8. Кескични ишчи чизмасини эскизи барча техник талаблари билан чизилади

## **4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI**

Detalga ishlov berish jarayoni GOST 123-002-85 bo'yicha ishchilar mehnatini xavfsizlik sharoitlarini inobatga olgan holda tuzilgan texnologik jarayon metall qirqish dastgohlaridan iborat bo'lgan ishlab chiqarish tizimidir. Texnologik jarayonda quyidagi stanoklar ishlataladi tokarlik, frezerlash, parmalash, zatochkali va boshqa stanoklar. Dastgohlar moslangan va kesuvchi asboblar, moslamalar va qurilmalar bilan ta'minlangan. Operatsiyalar stanokdan – stanokga o'tadi va oxirida xomashyodan detal bo'lib chiqadi. Bu dastgohlar universal va yarim avtomatikdir. Jarayonda detal bir dastgohdan ikkinchi dastgohga maxsus qurilma bilan uzatib berililadi.

Bo'limda bir nechta zararli va havfli omillar mavjud. Zararli omillar birinchi mexanik ishlov berishdagi, ya'ni kesib ishlashdagi ajraladigan chang, tovush, titrash. Chang odam organizmiga kirib nafas olish yo'llarini zararlaydi va ko'z pardasini ishdan chiqarishi mumkin. Vibratsiya, ya'ni tebranish tufayli kasb kasalliklari paydo bo'ladi. Chiqadigan tovush odamning miyasiga ta'sir etib, uni charchatadi va ma'lum kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Xavfli omilllar bu metallga ishlov bergen vaqtida strujka, asbob siniqlari uchib odamga jarohat yetkazishi mumkin. Bundan tashqari havfli omillarning biri elektr toki. Chunki hamma jixozlar elektr toki bilan ishlaydi.

Stanoklar ishlagan vaqtida odamga strujkalar, siniq instrumentlar qismi jaroxat yetkazishi mumkin. Barcha dastgoxlar elektr tokida ishlaydi, shuning uchun ishchilar elektr shikastlanishga uchrashi mumkin. Bo'limda quyidagi zararli moddalar (metall changi, texnologik suyuqlikni parlari, abraziv-metall changi, ajralib chiqadigan issiqliklar, shovqin, titrash, nurlanishlar) mavjud bo'lishi mumkin va ular odamga ta'sir qiladi.

Ularni normativ me'yorlari SanPiN-93 xujjatida belgilangan. Ishchi joylarini yaxshilash uchun bo'limda issiq va sovuq suv, ichimlik suvi, dam olish joylari ko'zda tutilgan. Ishlov berish vaqtida ajralib chiqqan chiqindilar yer ostidagi konveyer yordamida tashqariga olib tashlanadi.

Yong'inning oldini olish uchun signalizatsiya, yong'in shiti, yong'in gidranti mavjud. Seh bir etajli binoda joylashgan bo'lib, svetaeratsion fonarlar, ventilyatsiya va tabiiy yorug'lik bilan ta'minlangan. Barcha xavfli zonalarning atrofi o'rалган. Dastgohlar maxsus fundamentga o'rnatilgan. Bo'limda zaruri elektr xavfsizlik qoidalari ko'zda tutilgan. Texnologik jarayon mexanizatsiyalangan va avtomatlashtirilgan.

Texnologik jarayonni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish mehnat sharoitini yengillashtiradi. Mehnat sig'imi va yordamchi vaqt ham kamayadi. SHuning uchun zagotovka tsexdan va tashqaridan transportyor yordamida tashiladi. Osma kran yordamida dastgohlar montaj va demontaj qilinadi. Chiqqan chiqindilar yer ostidagi konveyer yordamida olib tashlanadi. Qo'llanilgan moslamalar iloji boricha mexanizatsiyalangan bo'lishi lozim. Og'ir yuk va dastgohlarni ko'chirish uchun kranbalka qo'llaniladi.

Bo'limda harakatlanish va transportda o'tish yo'llari ham majud, ular me'yor bo'yicha yo'llar – 2000mm va o'tish joylari dastgohdan 800 – 1200 mm teng bo'lishi shart. Ularning soni texnologik jarayonning katta - kichikligiga karab olinadi. Odamning o'lchovi 800mm olinadi. Odam va stanok orasidagi masofa 1500mm qilib belgilab olinadi.

### **Xavfsiz va zaxarlanishsiz ish usulini taylorlashni ta'minlash.**

Ish zonasining havosini sog'lomlashtirish uchun ishlab chiqarish jarayonida quyidagi meteorologik sharoitlarni, ya'ni harorat – 18-27 °S, namlik – 40-75 %, havo harakat tezligi – 0,3 – 3 m/s, atmosfera bosimi – 710-725 mm.sim.ust. da bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish korxonalarida havoning harorati boshqarilmasa  $t=18-25\%$ dan  $t=30\%$ gacha ko'tarilib ketishi mumkin. SHuning uchun GOST 12.1-006-88 bo'yicha va SN247-81ga asoslanib optimal iqlimi sharoitlar belgilanadi.

Qishda  $t=17$   $19^0$   $\varphi=40$  60%

Yozda  $t=20^0$   $22^0$   $\varphi=40$  60%

Ishlab chiqarish binolari uchun umumiy havo almashinuvini quyidagicha topamiz.

$$L_{tr} = L_{vit} = \frac{Q_{cap\phi}}{C(t_{sum} - t_{np}) \cdot p}; \quad m^3/soat.$$

$$Q_{sarif}=Q_{um.}+Q_p+Q_m=300000+20000+180000=500000$$

$L_{tr}$  va  $L_{vit}$  – kelayotgan va chiqib ketayotgan havo qiymati.

$t_{it}$  va  $t_{vit}$  – kelayotgan va chiqib ketayotgan havo harorati

$$L_{tr} \text{ va } L_{vit} = \frac{500000}{0,24(30-22)1,73} = 222000 \quad m^3/soat.$$

GOST 12.4.113 -82 asoslangan holda axborot olish maydoni quyidagicha bo'lishi lozim: zonaning maydoni -  $4,5m^2$ , yuqori ko'rish zonasasi  $2,5m$ , zonaning eni –  $3,0m$  va quyisi ko'rish zonasasi -  $1m$ .

Yuqorida ko'rsatilgan zararli moddalarni kamaytirish uchun ishlab chiqarish binosida shamollatish (ventilyatsiya) sistemasi qo'llanilgan. U zararli moddalar ajralgan joydagagi moddani kamaytiradi va tortib oladi, xonada tarqalib ketishini oldini oladi. Ushbu ventilyatsiya o'rnatilishi va ishlatilish uchun kam sarf talab qilinadi. Havoni beradigan va havoni tortadigan havo almashtirish sistemasi 8.1 - ramda keltirilgan.

### **Ishlab chiqarishdagi yoritilganlik**

Sanoat tarmoqlariga yoritilganlik normalariga mos holatda korxona uchun yoritish tizimi tabiiy va sun'iy yoritish olinadi. Loyihalanayotgan bo'limda tabiy va sun'iy yorug'lik ko'zda tutilgan.

Tabiiy yoritilish oyna va fonalarlar orqali bajariladi, TYK me'yor 0,1-10% olinadi. Sun'iy yoritilish esa gazorazryadli lampalar orqali amalga oshiriladi. Bu lyuminestsentli lampalardir. Normal ish sharoitini ta'minlash uchun SNiP11-4-79 dan foydalanib hisob-kitob qilinadi. Yorug'lik oqimidan foydalanish ko'rsatkichiga asoslangan hisob-kitob shuni ko'rsatdi, kerakli nur oqimi  $F_1=5220$  lm bo'lishi kerak ekan. Bo'limda talab etilgan yorug'likning o'rtachasi 300 lm ga teng.

Gigienik talablarga asosan bitta ishlovchiga ma'lum inshootni hajmi va maydoni belgilanadi.

Lyuministsentli yoritgichlar shaxmat tartibida joylashgan bo'ladi.

Avariya holatini oldini olish uchun elektr yo'llariga avariya holdagi yoritilish ko'zda tutilishi kerak, uning miqdori 5 lk etib tanlanadi.

Tabiy yoritilish SNiP11-4-79 bo'yicha loyihalanayotgan ob'ekt olingan.

Bo'limni tabiiy yorug'lik uchun binoning ma'lum joylarida yoritish yuqori tomonida joylashgan proemlari orqali amalga oshiriladi. Yoritilganlik tabiiy yoritilganlik koffitsienti normativ ko'rsatkichi SNiP11-4-71 bo'yicha 0,9 deb qabul qilamiz.

Bo'limda yorug'lik o'tkazadigan qabul maydonini quyidagicha topamiz.

$$S_{\Phi} = \frac{S_n \cdot L_n \cdot K_3 \cdot \Pi_o}{T_0 \cdot V_k \cdot K_{\phi} \cdot 100};$$

bu yerda:

$S_n$ -bo'lim polining maydoni;  $m^2$

$L_n$ -me'yorlangan qiymat; KLO

$K_3$ -zapas koeffitsenti.

$P_0$ -oynaklar yorug'lik tasnifi

$T_0$ -yorug'lik o'tkazuvchanlik koeffitsenti.

$T_0 = T_1 \cdot T_2 \cdot T_3 \cdot T_4 \cdot T_5 = 1,0 \cdot 1,0 \cdot 1,0 \cdot 1,0 \cdot 0,9 = 0,9$

$$S_{\Phi} = \frac{270 \cdot 9,0 \cdot 1,5 \cdot 0,85}{0,9 \cdot 0,75 \cdot 0,8 \cdot 100} = 60,5 m^2$$

Ya'ni biz fonarlarni maydonini  $61 m^2$  qilib olishimiz kerak.

### **Ishlab chiqarishda shovqin, titrash va ularni kamaytirish yo'llari**

Texnologik jarayonda quyidagi stanoklar ishlataladi tokarsh, frezerlash, parmalash, zatochkali va boshka stanoklar. Bu dastgohlar, moslamalar, transport vositalari shovqin va titrashni yaratadi, shuning uchun ularni odamga ta'sirini kamaytirish kerak bo'ladi.

Loyihada quyidagi tadbirlar qo'llanilgan: konstruktiv, texnologik qurilmalar.

Shovqin va tovush chiqarayotgan manbani kamaytirish uchun ventkameralar o'rnatilgan, uning ichida barcha shovqin va titrashni hosil qiladigan ventilyatorlar, kompressorlar, generatorlar joylashtirilgan.

Tirashni kamaytirish uchun stanokalrn tagida fundamentlar va vibroyostiq (vibropodushka)lar o'rnatilgan. Bundan tashqari shovqin va titrashni hosil qiladigan stanoklarda ishlaydigan ishchilar shaxsiy vositalar bilan ta'minlangan, ularga antifonlar berilgan.

### **Texnika xavfsizligi. Elektr xavfsizligi.**

Barcha dastgoxlar elektr tokida ishlaydi, shuning uchun ishchilar elektr shikastlanishlarga uchrashi mumkin. Ishlab chiqarish korxonalarida elektr tokidan keng qo'llaniladi. Shuning uchun elektr xavfsizligiga katta e'tibor berish kerak. Elektr zanjiri odam tanasi orqali ulanib qolsa yoki odam zanjirning ikki nuqtasiga tegib ketsa odamni tok uradi. Loyihada himoyaviy yerga ulash himoyasi va nolga

ulash himoyalarini sxemalari qo'llanilgan. Bundan tashqari bir necha joyda qo'shimcha izolyatsiyasi ishlatalilgan va himoya to'siqlaridan qo'llanilgan.

### **Yong'in xavfsizligi.**

SNiP11-2-81ga asosan loyihalanayotgan inshoot yong'in, portlash, yonib-portlash, havfliliqi bo'yicha «D» kategoriya kiradi. Qurilish materiallari yonmaydigan yong'inga chidamliligi bo'yicha inshoot 1 darajalidir.

Boshlang'ich o't o'chirish vositalariga bo'lган ehtiyoj. Loyihalangan bo'limda yong'inni o'chirishda o'chirish shiti va birlamchi o't o'chirish vositalari mavjud.

O'tga qarshi suv ta'minoti. Loyihalanayotgan tsex bo'limda suvni yig'ish, tashish, saqlash va foydalanishda muhandislik qurilmasi mavjud. Bo'lim yong'in gindranti, suv hovuzchasi, shlanglar bilan ta'minlangan.

Aloqa, yong'in signalizatsiyasi. Yong'in xavfsizligi asosiy shartlarini ta'minlash uchun avtomatik vositalar qo'llaniladi. Bo'limda POST-1 xabar beruvchi qurilma qo'llanilgan 3 donadan iborat.  $20m^2$  maydonni nazorat qila olib,  $70^0$  S ishlay boshlaydi va 0,1 sekundda xabar beradi. Bundan tashqari DV-1 xabarlatgich sxemasi qo'lanilgan.

## 5. IQTISODIY QISM

Seh bo'limlarida texnologik jarayonlarni loyihalashda uning samaradorligini aniqlaydigan asosiy ko'rsatkich - bu ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi hisoblanadi. Texnologik jarayonlarning biron-bir operatsiyasi uchun qo'shimcha nostonstandart qurilma, moslama mexanizm qo'llangan holda operatsiyaning texnologik tannarxini aniqlash uchun keltirilgan sarf-xarajatlarni aniqlash talab etiladi. Buning uchun quyidagi boshlang'ich ma'lumotlar zarur bo'ladi.

### 5.1. Yillik ishlab chiqarish dasturi

"Support gaykasi" detalining yillik ishlab chiqarish dasturi – N=200 dona.

### 5.2. Asosiy jamg'armalar xarajatlari

#### 5.2.1. Bino-inshoatlar qiymatini aniqlash

$$S_B = 1,3Q_{um}h_Bq_B,$$

bu yerda,

1,3 – bino usti (qo'shimcha hajmi)ni hisobga oluvchi koeffitsient;

$Q_{um}$  – binoning umumiyligi maydoni (tashqi o'lcham bilan),

$$Q_{um} = 124 \text{ m}^2 \text{ (5.4-bo'lim);}$$

$h_B$  – bino balandligi,  $h_B = 8,5 \text{ m}$ ;

$q_B$  – binoning  $1 \text{ m}^3$  bahosi,  $q_B = 9610 \text{ so'm}$

$$S_B = 1,3 \cdot 124 \cdot 8,5 \cdot 9610 = 13167622 \text{ so'm}.$$

#### 5.2.2. Dastgoh, jihoz va asbob-uskunalar qiymati.

1. Dastgohlar qiymati ularning soni, preyskuranit bahosi, transport xarajatlari, montaj va sozlash xarajatlaridan kelib chiqib hisoblanadi.

Dastgoxlar uchun umumiyligi xarajatlar  $20340000 \text{ so'm}$

2. Asbob-uskuna va moslamalar qiymati:

Ularning qiymati dastgohlar balans qiymatining 15% ga teng deb olinadi:

$$S_{as} = 15\% \cdot C_{dast} = 0,15 \cdot 20340000 = 3051000 \text{ so'm}.$$

3. Ishlab chiqarish inventarlari qiymati:

Ishlab chiqarish inventarlari qiymati dastgohlar balans qiymatining 1,5% ga teng deb olinadi:

$$S_{as} = 1,5\% \cdot C_{dast} = 0,015 \cdot 20340000 = 305100 \text{ so'm}.$$

### 5.3 Asosiy fondlarning tarkibi va tuzilishi

Asosiy fondlarning balans qiymatlari, amortizatsiya koeffitsientlari va miqdori 5.1-jadvalda keltirilgan.

5.1-jadval

Ko'rsatkichlar nomi	Boshlang'ich (balans) qiymat, so'm	Umumiyligi amortizatsiya me'yori, %	Yillik amortizatsiya miqdori, so'm
Bino-inshoatlar	13 167 622	3,3%	438 920,73
Dastgohlar	20 340 000	10,0%	2 034 000,00
Asbob-uskunalar, moslamalar	3 051 000	20,0%	610 200,00
Ishlab chiqarish inventarlari	305 100	8,3%	25 425,00
<b>JAMI</b>	<b>36 863 722</b>	<b>8,4%</b>	<b>3 108 545,73</b>

### 5.3.1 Material sarfi hisobi

Asosiy ishlab chiqarish uchun zarur xom-ashyo - zagotovka uchun sarf xarajatlar quyidagicha hisoblanadi:

$$S_{MS} = N \cdot S_{zag} = 200 \cdot 8900 = 1780000 \text{ so'm}.$$

Yordamchi material sarfi

$$S_{YOM} = 0,02S_{MS} = 0,02 \cdot 1780000 = 35600 \text{ so'm}.$$

### 5.4 Ishchilarning ish haqi fondi hisobi

Mukofot puli asosiy va yordamchi ishchilar uchun oylik ish haqining mos ravishda 35% va 25% ulushiga teng. Barcha ishchilar uchun yagona ijtimoiy sug'urta to'lovi 25%. Asosiy va yordamchi ishchilar soni tashkillash bo'limida hisoblangan (q. 5.3-bo'lim).

Asosiy ishchilarning ish haqi fondi quyidagicha xisoblanadi:

$$S_{IH} = \Sigma N \cdot T_s,$$

bu yerda, Ts-5 razryadli ishchining soatbay ish haqi, Ts=3523,81 so'm/soat;

$$S_{IH_1}^A = 200 \cdot \frac{9,3}{60} \cdot 3523,81 = 109238 \text{ so'm};$$

$$S_{IH_2}^A = 200 \cdot \frac{5,5}{60} \cdot 3523,81 = 64603 \text{ so'm};$$

$$S_{IH_3}^A = 200 \cdot \frac{4,8}{60} \cdot 3523,81 = 56381 \text{ so'm};$$

$$S_{IH_4}^A = 200 \cdot \frac{6,68}{60} \cdot 3523,81 = 78464 \text{ so'm};$$

Jami ish haqi: 308686 so'm.

Jami mukofot puli: 108040 so'm.

Jami yagona ijtimoiy to'lov: 108040 so'm.

Asosiy ishchilarning jami ish haqi fondi: 524766 so'm.

Yordamchi ishchilarning yillik ish haqlari, YaIS va mukofot tulovlari 5.2-jadvalda aks ettirilgan:

5.2-jadval

Nº	Xizmatchilar kategoriyasi va lavozimi	Soni	Oylik maoshi, so'm	Yillik ish haqi, so'm	Yagona ijtimoiy sug'urta to'lovi, so'm	Yillik mukofot puli
1	MTX	2				
1.1	Bo'lim boshlig'i	1	1 539 200	18 470 400	4 617 600	3 694 080
1.2	Katta usta	1	1 065 600	12 787 200	3 196 800	2 557 440
1.3	Usta	0	828 800	0	0	0
2	OIX	1				
2.1	Omborchi	1	828 800	9 945 600	2 486 400	2 486 400
3	KXX	1				
3.1	Farrosh	1	355 200	4 262 400	1 065 600	1 065 600
<b>JAMI</b>				<b>45 465 600</b>	<b>11 366 400</b>	<b>9 803 520</b>

Yordamchi ishchilarning jami ish haqi fondi yuqoridagilarning yigindisiga teng:

$$S_{IH}^{Yo} = 45465600 + 11366400 + 9803520 = 66635520 \text{ so'm}.$$

### 5.5 Jihozlarni tutish va ulardan foydalanish xarajatlarini aniqlash

Dastgohlarni ekspluatatsiya uchun sarf-xarajatlar asosiy ishchilar ish haqining 150% ga teng deb olinadi:

$$S_{eks} = 1,5 S_{IH} = 1,5 \cdot 308686 = 463029 \text{ so'm}.$$

### 5.6 Umumiyl tsex sarf-xarajatlarini aniqlash

TSex sarf-xarajatlar asosiy ishchilar ish haqining 120% ni tashkil qiladi:

$$S_{tsex} = 1,2 S_{IH} = 1,2 \cdot 308686 = 370423 \text{ so'm}.$$

Umumkorxona sarf-xarajatlari barcha ishchilar ish haqining 90% ini tashkil qiladi:

$$S_{kor} = 0,9 \sum S_{IH_i} = 0,9 \cdot (308686 + 45465600) = 41196857 \text{ so'm}.$$

### 5.7. Detalining tannarxi kalkulyatsiyasi

Detalning tannarx kalkulyatsiyasi 5.3-jadvalda keltirilgan.

5.3-jadval

Nº	Sarf xarajatlar	Bir dona maxsulot uchun, so'm	Yillik dastur uchun, so'm
1	Asosiy material sarfi, tashish tayyorlash xarajatlari bilan (chiqindi kiritilmaydi)	8 900,00	1 780 000,00
2	Yordamchi materiallar sarfi, tashish tayyorlash xarajatlari bilan	178,00	35 600,00
3	Asosiy ishchilarning ish haqi fondi (yillik maosh, mukofot va YaIT bilan birga)	2 624,00	524 766,00
4	Yordamchi ishchilarning ish haqi fondi (yillik maosh, mukofot va YaIT bilan birga)	333 178,00	66 635 520,00
5	Dastgohlarni tutish bilan bog'liq xarajatlar	2 315,00	463 029,00
6	TSex xarajatlari	1 852,00	370 423,00
7	Umumiyl korxona xarajatlari	205 984,00	41 196 857,00
8	Ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar (umumiyl korxona xarajatining 0,5%)	1 030,00	205 984,00
9	Mahsulotning tannarxi	556 061,00	111 212 179,00
10	Mahsulotning ulgurji bahosi	668 000,00	127 894 006,00

### Mehnat unumdorligi:

Korxonadagi mehnat unumdorligini hisoblashda quyidagi oddiy formuladan foydalananamiz:

$$MU = \frac{YMX}{AI} = \frac{111212179}{9} = 12356909 \frac{\text{so'm}}{\text{ishchi}}.$$

bu yerda, YMX - korxonada ishlab chiqarilgan yillik mahsulot xajmi, so'm; AI - ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan ishchilar soni, dona.

### **5.8 Loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash**

Yillik iqtisodiy samaradorlik quyidagi formula bilan topiladi:

$$E_y = F_y - N_s \cdot SX_y = 16681827 - 0,1 \cdot 127894006 = 3892426 \text{ so'm}.$$

*bu yerda,*

$F_y$  - yillik kirim,  $F_y = 16681827 \text{ so'm}$ ;

$X_y$  - yillik sarf xarajatlar,  $X_y = 127894006 \text{ so'm}$ ;

$N_s$  - me'yoriy samaradorlik koefitsienti,  $N_s = 0,1$ .

### **5.9 Kapital xarajatlarning qoplanish muddati**

$$T_{Qop} = \frac{KX}{YF} = \frac{36863722}{16681827} = 2,2 \text{ yil.}$$

bu yerda, KX-barcha kapital xarajatlar qiymati; YF - yillik foyda.

### **5.10 Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili**

Korxonaning amaldagi va loyihaning iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

5.4-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Qiyo slash		Farqi
		Korxona	Loyiha	
1	Yillik dastur, dona	0	200	200
2	Korxonaning foydasi, ming so'm	0	16 682	16 682
3	Ishlab chiqarish rentabelligi, %	7%	17%	10%
4	Asosiy ishchilarining haqi, ming so'm	525	525	0
5	Mehnat unumдорлиги, ming so'm	0	12 357	12 357
6	Yillik iqtisodiy samaradorlik, ming so'm	0	3 892	3 892
7	Kapital xarajatlarning qoplanish muddati, yil	2	2,2	0,2

## XULOSA

Diplom loyihasi bajarish jarayonida “Support gaykasi” detalini zagotovka holatidan tayyor detal ko’rinishiga kelguniga qadar bo’lgan texnologik marshruti, buning uchun zaruriy jihozlar, moslamalar, kesuvchi asboblar tanlandi va loyihalandi.

Mexanik ishlov berish uchun qoldirilgan qo’ym miqdorlari analitik va jadvallar usulida hisoblandi. Texnologik jarayon operatsiyalari uchun optimal kesish maromlari aniqlandi. Texnologik bo’limda maxsus dastgox moslamasi va kesuvchi asbob loyihalanib, mavjud ishlov berish sharoiti uchun aniqlikka tekshirildi.

Aniqlangan texnologik vaqt me’yorlari mavjud ishlab chiqarish sharoiti uchun detalni tayyorlash vaqtini to’g’ri baxolash imkonini beradi.

Iqtisodiy bo’limda detalning tayyor bo’lish narxi, umumiyligi va qo’shimcha xarajatlar, sex, dastgoxlar va texnologik jarayon uchun zaruriy yordamchi asbob- uskunalar uchun kiritilgan kapital mablag’larning qoplanish muddati kabi iqtisodiy ko’rsatkichlar aniqlandi. Tuzilgan texnologik jarayonning iqtisodiy samaradorligi ko’rib chiqildi.

Diplom loyihasi natijalari bo’yicha shuni xulosa qilishim mumkinki, o’qish davomida olgan bilimlarim amaliy va nazariy jihatdan mustahkamlandi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustivor yo'naliishlari bo'yicha XARAKATLAR STRATEGIYASI.
2. Горбацевич А.Ф, Шкред В.А. Курсовое проектирование по технологии машиностроение. М.: Высшая школа, 1983-256с.
3. Безъязычный В.Ф. Расчет режимов резания. Рыбинск 2009 г.
4. Касилова А.Г, Мешеряков Р.К. Справочник технолога машинастроителя. Т-2, М.: Машиностроение, 1985-496с.
5. М.А.Ансеров Приспособления для MPC – 1975.
6. Добрыднев И.С. Курсовое проектирование по предмету «Технология машиностроения». М.: Машиностроение, 1985 г. 184 с.
7. Я. М. Родкевич, В. А. Тимирязев. Расчет припусков и межпереходных размеров в машиностроении. Москва. Высшая школа, 2004. 272 с.
8. Общемашиностроительные нормативы времени. Справочник//М.: Москва 1984.
9. Ванин В.А. Приспособление для металлорежущих станков. Издательство ТГТУ. 2007.
- 10.Шишкин В.П., Закураев В.В. Основы проектирования станочных приспособлений. Теория и задачи. Москва 2010 г.
- 11.Справочник технолога-машиностроителя. Т.1 / Под ред. А.Г. Косиловой, Р.К. Мещерякова.– М.: Машиностроение, 1985
- 12.Далський А.М. Технология машиностроения. Т-1, Основы технологии машиностроение. М.: МГТУ им Н.Э.Баумана, 2001-563с.
- 13.И.М.Белкин. Справочник по допускам и посадкам для рабочего машинастроителя–М.:Машиностроение,1985-320с.
- 14.Панов А. А, Аникин В.В. Обработка металлов резанием. Справочник технолога-М.: Машиностроение,1988-736с.